

O‘ZBEK VA INGLIZ AYOLLARI NAZDIDA “BAXT” TUSHUNCHASI

ADCHTI ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Toshtemirova Dilobar Botirbek qizi

E-mail: toshtemirova.dilobar@mail.ru

Ilmiy rahbar: Muqimjon Axunov Muhammadaminovich

(PhD) f.f.f.d, dotsent

E-mail: muqimjon.axunov@bk.ru

Telefon: +998979977443

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbek va Ingliz ayollarining “Baxt” deb ataladigan nozik tushunchani qanday tushunishi va qanday tarzda ifoda etishini yoritib beradi. Ikki xil millat va din vakillarining dunyoqarashlari o‘rtasidagi farqlar va qisman o‘xshashliklar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Baxt, konsept, tushuncha, muvaffaqiyat, shodlik.

THE CONCEPT OF “HAPPINESS” AMONG UZBEK AND ENGLISH WOMEN

Annotation: This article sheds light on how Uzbek and English women understand and express the delicate concept called “Happiness”. Differences and partial similarities between worldview of representatives of two different nationalities and religions are revealed.

Key words: Happiness, concept, view, success, gladness.

Mamlakatimizda globallashtirish jarayonlari tufayli geneologik jihatdan qardosh bo‘lmagan o‘zbek va ingliz tillari tizimidagi konseptlarning olamning lisoniy palitrasida tutgan o‘rni va xususiyatlarini aniqlash, baho kategoriyasining verballashuvi imkoniyatlarini o‘rganish, verbalizatorlarning madaniyatlararo konseptual umumiy va farqli jihatlari bugungi kun tilshunosligining so‘nggi yutuqlariga tayanib, zamonaviy tilshunoslik metodlari asosida tadqiq qilish ehtiyoji tug‘ilmoqda. Shunday tadqiqotlar qatoriga o‘zbek va ingliz tillarida baxtlilik va baxtsizlik konseptual maydon birliklarini tahlil etish vazifasini ham kiritishimiz mumkin. Mamlakatimizda ta‘lim va tarbiya davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir paytda «...yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz»¹. Ta‘limni takomillashtirishda innovasion g‘oyalarning ustuvor strategik yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilishi chet tilni o‘rgatishda tilning konseptual o‘ziga xosliklari, milliy-

madaniy omillarning roli amaliy tilshunoslikning ilmiy tadqiqotlar korpusini ko‘tarishni muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berdi.

Dunyoda qancha odam bo‘lsa, aytish mumkinki, shuncha dunyoqarash va tasavvur mavjud. Shu jumladan “**Baxt**” tushunchasini ham turlicha so‘z va iboralar bilan tavsiflash mumkin. Avvalo, bu atamaning tub ma‘nosiga nazar tashlasak, “Baxt” so‘zi o‘zbek tiliga qadimiy turkiy tillardan kirib kelgan. Bu so‘zning asosiy ma‘nosi “**yaxshi holat**”, “**muvaffaqiyat**”, “**shodlik**” kabi tushunchalarni ifodalaydi. Bu tushunchaning ma‘nosini aks ettirish kerak bo‘lsa quyidagicha tasvirlash mumkin: *Kishi o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik, muayyan maqsadga yetganlik, orzu-umidning ushalihi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo‘ladi.* Bu shunchaki lug‘aviy tushuncha deyish mumkin. Ammo “konsept” ham mavjud, ya‘ni so‘zlarning asosiy, markaziy ma‘nosi hisoblanadi. Aynan shu orqali turli xildagi masalalarga oydinlik kirita olamiz.

Albatta, O‘zbek ayoli deganda ko‘z o‘ngimizga mehnatkash, doimo oilasini, yaqinlarini o‘ylaydigan, qadimiy urf-odatlariga sodiq va albatta, sadoqatli onalarimiz, opalarimiz keladi. Baxt siz uchun nima? va shunga o‘xshash tasodifiy savollarga hech ikkilanmay “**Oilam**” deya javob berishadi. To‘liqroq aytiladigan bo‘lsa, turmushga chiqqanda butun baxti turmush o‘rtog‘i va oilasining tinchligi deb, farzand kutayotganda baxtini kichik o‘g‘il-qizlarining kelajagiga bog‘laydigan, ularning har bir kulgusidan, erishgan g‘alabasidan baxt topadigan, oila tashvishlari bilan birga umr yo‘ldoshimga yo‘ldoshimga yordam bo‘lsin deb qo‘shimcha ishlab, shunda ham baxtliman deya dunyolarga jar solguvchi “**O‘zbek**” ayollariga qancha tasannolar aytsak shuncha kamdir. Oldingi davrlardan uzatilgan qiz ota-onasining uyiga qaytib borishi isnod sanalgan. Tinchlik birinchi o‘rinda turadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi, ya‘ni har bir kelin bo‘lgan qiz asl baxtni shunda deb hisoblashadi. Bundan tashqari, ikki yoshning bir-birini tushunishi va hurmat qilishi baxtning boshlang‘ich ko‘rinishlaridan biri deb hisoblashadi. Keyingi ko‘rinishlaridan biri vafot etganimga tobutimni ko‘tarib, e‘zozlab dafn qiladi deb va bundan tashqari ne-ne katta umidlar bilan sog‘-salomat voyaga yetkazishning o‘z ham katta baxtdir.

Boshqa tomondan, fikrlar Ingliz ayollari haqida borganda, shubhasiz, mustaqillik va erkinlik, ijtimoiy tenglik, karyera va shaxsiy maqsadlar, sayohat va tajribalar, sog‘liq va farovonlik va so‘ngida oila va munosabatlarni sanab o‘tish mumkin. G‘arb mamlakat ayollari o‘z mustaqilligini qadrlashadi. Ingliz ayollarining baxti ko‘pincha ijtimoiy tenglikka, huquq va imkoniyatlarning teng taqsimlanishiga bog‘liqdir. Ularning ko‘plari o‘z ishlarini, karyeralarini rivojlantirishni o‘z baxtining bir qismi sifatida ko‘radilar. Ularning ayrimlarining yoshi o‘tib ketayotganliklarini bilsalarda aslo turmush qurish haqida o‘ylab ham ko‘rishmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, balki qarashlar turlichadir, baxtni boshqa-boshqa narsalar, tushunchalar orqali anglashga urunishar. Mavjud leksikografik manbalar

asosida o‘zbek tilida «baxt(baxtlilik)/ baxtsizlik» va ingliz tilida «happiness/unhappiness» konseptlarining leksik-semantik verbalizatorlari tahlili ko‘rsatdiki, mazkur konseptosferaning periferik ko‘rsatkichlari juda ham keng masshtabga ega bo‘lib, ular tayanch konsept nominantiga sinonimik va tarzda munosabatga kirishar ekan. Periferiyaning birinchi, yadro oldi qatlami asosiy, nutqda eng aktual so‘zlardan iborat bo‘lsa, keyingi qatlamlar yadrodan uzoqlasha borgani sari assosiativning kamayib borishini ifodalovchi, faollik darajasi quyilashib boruvchi passiv leksemalar jamlanmasidir. Periferik qatlamning har birida keltirilgan birliklar nutqda aktualigi darajasi bilan farq qilsa-da, o‘z vazifalariga ega: biri muayyan ta’rifni tavsiflash uchun qo‘llanilsa, boshqasi to‘ldiruvchi yoki qo‘shimcha izoh sifatida qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Апресян В. Ю. Механизмы образования и взаимодействия сложных значений в языке // автореф. дисс. докт. филол. наук. М., 2015. –42 с. 7. Аристотель. Риторика. Поэтика. Кн. III. М. – 2000. – 256 с. 8. Арутюнова 2. Н. Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М: Наука. – 1988. – 296 с. 9. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М.: Яз. рус. 2. Культуры. – 1998. – 399 с. 10. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. М., 1997. – С. 276-379.
3. Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики//Филология масалалари, – №4 – Тошкент, 2004. – С. 24-28.
4. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж. 1996. – 103 с.
5. Бакирова Г. А. Вербализация концепта" счастье" в татарском и английском языках (на примере благожеланий): автореф. дис. канд. филол. наук. – Казан. (Приволж.) федер. ун-т, 2011. – 103 с.
6. Баранов А. Н., Караулов Ю. Н. Русская политическая метафора (материалы к словарю) //Вопросы языкознания. – 1993. – №. 3. – С. 136-140.
7. Белова А. Д. Языковые картины мира в рамках когнитивнодискурсивной парадигмы / А. Д. Белова // Культура народов Причерноморья. – 2002. – № 29. – С. 17–23.
8. Богданова Е. А. Концепты «добро» и «зло» в русской и французской лингвокультурах: аксиологический аспект // Автореф... канд. филол. наук. – Майкоп. 2012. – 23 с.